



HUQUQIY TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNING HUQUQSHUNOSLIK SOHASIDA QO'LLANILISHI

Xasanov Karim

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoiy odil sudlov fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Sun'iy intellekt (SI) yordamida quvvatlantirilgan huquqiy texnologiyalar huquqshunoslikda revolutsiyaga olib kelmoqda. Turli sohalar ichida huquqshunoslik sohasi ham shunday vositalar bilan qamrab olindi. Bu soha vakillariga esa endilikda o'z vazifalarini tez fursatda, qulay usulda va samarali bajarish imkoniyati berildi. Huquqiy texnologiyalar va SI bu borada huquqshunoslarning asosiy yordamchilariga aylanib ulgurdi deyish mumkin. Mayda huquqiy ishlardan tortib sud jarayonlari ishlarida ham mana shu vositalarning o'zni sezilarli darajada. Dunyodagi juda ko'p mamlakatlar huquqiy texnologiyalar va SIDan foydalanish hamda uni huquqiy jihatdan tartibga solish borasida ulkan chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Kalit so'zlar: Huquqiy texnologiya, sun'iy intellekt (SI), algortim, qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, Yagona interaktiv davlat xizmatlari, ma'lumot xavfsizligi, kiberjinoiyat, platforma.

Kirish.

Texnologiyalar jadal sur'atda taraqqiy etayotgan bugungi kunda odamlar hayotini turli xildagi texnologiya vositalarisiz tasavvur qilish deyarli imkonsiz bo'lib bormoqda. Aytaylik, ta'lim jarayonlarida, boshqalar bilan muloqot qilishda yoki zavqli mashg'ulotlar bilan shug'ullanishda texnologiyalardan foydalanamiz. Iqtisod, tibbiyot, ta'lim kabi ko'plab sohalarda, jumladan, huquq sohasida ham ushbu vositalardan foydalanish ommaviy tus olgan. Shu boisdan, huquq sohasida foydalaniladigan texnologiyalar haqida batafsil ma'lumotlar berib o'tar ekanmiz ushbu soha uchun muhim bo'lgan mavzu: "Huquqiy texnologiyalar va sun'iy intellekt" mavzusini yoritamiz.

Materiallar va metodlar.

Ushbu maqolada tahlil va sintez, statistik, mantiqiy hamda qiyosiy-huquqiy usullar qo'llanilib ma'lumotlar to'plangan. Masalalarga chuqur yondashishga ko'maklashuvchi xorijiy, milliy va qonunchilik manbalaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari.

Mavzuni yoritishni huquqiy texnologiyalar va Sining quyidagi jihatlarini tahlil qilish bilan boshlaymiz:



Huquqiy texnologiya tushunchasi. Huquqiy texnologiya bu huquqiy xizmatlar sifatini oshiruvchi va huquqshunoslarga huquqiy jarayonlarni smarali amalga oshirish imkonini beruvchi programmalar hamda dasturlar tizmidir [1]. Ya'ni, bu shunday dasturlarki, ular yordamida nafaqat huquqshunoslar, balki boshqa toifadagi odamlar ham keng turdagi huquqiy xizmatlardan foydalana oladi. Masalan, shartnomalar tuzish, hujjatlar hamda ma'lumotnomalarni saqlash, olish va ulardan foydalanish, huquqiy tahlillarni olib borish, huquqiy ma'lumot bazalaridan foydalanish kabilar.

Sun'iy intellekt tushunchasi. Sun'iy intellekt — insonning bilim va ko'nikmalariga taqlid qilish imkonini beruvchi (shu jumladan, mustaqil ravishda o'rganish va yechimlarni izlash) hamda aniq vazifalarni bajarishda inson aqliy faoliyati natijalari bilan taqqoslanadigan natijalarni olish imkonini beradigan texnologik yechimlar majmui [2].

Sun'iy intellektning huquq sohasidagi o'rni. Ma'lumki, sun'iy intellekt (SI) bir necha o'n yillar oldin yaratilgan bo'lsada, undan foydalanish boshqa sohalar bilan bir qatorda huquqshunoslik sohasida ham yaqin yillarda keng tarqaldi. Uning bu sohaga kirib kelishi o'ziga xos bir ahamiyat kasb etdi va huquqshunoslar uchun qulaylik tug'dirdi. Xitoylik tadqiqotchi WangYi aytganidek: "Huquqshunoslikda sun'iy intellektidan foydalanish huquqni yaxshiroq tushunish va uni qo'llash imkoniyatini ta'minlaydigan vositalarni o'z ichiga oladi." [3] Hozirda muayyan masalaga doir normalarni topish, ularni tushunish hamda tahlil qilish avvalgiday murakkab jarayon hisoblanmaydi. Negaki "lex ai" kabi SI tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan sun'iy intellekt platformalari orqali kerakli huquq normalarini topish va ularni tahlil qilish imkoniyati mavjud. Bundan tashqari, endilikda turli huquqiy vaziyatlarda qanday yo'l tutish zarurligini bilish uchun SIDan bepul maslahat so'rash mumkin. 2022-yilning oxirida OpenAI matnli jummalarga javob bera oladigan ChatGPTni ommaga taqdim etdi [4].

Huquqiy texnologiyalarning afzalliklari. Yuqorida aytib o'tilganidek, huquq sohasiga doir platformalar ham huquqiy texnologiyalarning bir turi hisoblanadi. Davlatlar o'z hududida amalda bo'ladigan normativ huquqiy hujjatlar chiqarar ekan, ulardan keng foydalanish imkoniyatini ta'minlash maqsadida bu hujjatlarni bitta joyga, texnologik taraqqiyotni hisobga olganda, veb-platformaga to'plash zarurati tug'iladi. O'zbekiston Respublikasida ham mana shunday veb-platforma "lex.uz" hisoblanadi. Unda davlat tomonidan rasmiy e'lon qilingan barcha hujjatlar mavjud bo'lib, fuqarolar ulardan foydalanishi, ularga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni doimiy kuzatib borishi, normalarga berilgan sharhlar, umuman olganda, o'z huquq va manfaatlariga



taalluqli boʻlgan qonunchilik manbalaridan foydalanishi mumkin. Xalqaro miqyosda huquqiy platformalardan “LexisNexis”, “Westlaw” kabilarni misol keltirishimiz mumkin, qaysiki dunyodagi koʻplab mamlakatlar tomonidan keng ravishda foydalaniladi. Bundan tashqari, huquqni oʻrganayotganlar va bu sohada faoliyat yuritayotgan mutaxassislar sud organlari haqida maʼlumot olishi, sud hujjatlari, sud qarorlari toʻplamlari bilan tanishishiga imkon beruvchi huquqiy texnologiyalar ham mavjud. Bularga misol sifatida “e-xSud” yoki “sud.uz” onlayn platformalarini keltirisak boʻladi. Huquqshunos mutaxassis Aayushi Selot aytganidek, huquqiy texnologiyalar rivojlanishda davom etar ekan, biz yangi innovatsiyalar va oʻzgarishlarni koʻrishimiz mumkin [5]. Huquqiy texnologiyalarning yana bir afzalligi shundaki, bugungi kunda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali shaxsga doir maʼlumotlar, elektron hujjatlar va boshqa maʼlumotnomalar bilan ishlash va ularni olish imkoniyati yaratilgan. Endi hujjatlarning asl nusxasini olib yurishga xojat yoʻq, chunki qonunchilikda qogʻoz hujjatlar elektron hujjatlar bilan tenglashtirilishi va bir xil kuchga ega [6] ekanligi “Elektron hujjat aylanishi togʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi qonunida belgilangan. Insonlar oʻzlariga tegishli, yuristlar esa mijozlariga tegishli boʻlgan hujjatlarni yoki ruxsatnomalar, yoʻllanmalar, maʼlumotnomalarni olish uchun avvalgiday maʼlum bir joylarga borishi va navbat kutishi shart emas. Bunday harakatlarni joylarda turib onlayn tarzda amalga oshirish mumkin. Buning natijasida insonlarda vaqtini va pulini tejash imkoniyati yuzaga keladi.

SIning huquq sohasida afzalliklari. “Texas Tech University School of Law Library” xalqaro jurnalida nashr etilgan “Four-step legal research process” maqolasida huquqiy amaliyotda sunʼiy intellektdan (SI) foydalanish keskin oshib borayotganligi taʼkidlangan [7]. Bu huquq sohasida ilgʻor rivojlanish hamda innovatsiyalar bilan bir qatorda SIning huquqshunoslarning eng yaxshi yordamchisiga aylanish jarayoni ham boʻlmoqda. SI eng koʻp ishlatiladigan sohalardan biri, albatta, huquq sohasidir, negaki bu sohaning vakillari mana shunday yordamchiga muhtoj boʻladilar. Ular anʼanaviy ravishda hujjatlarni toʻplash, tahlil qilish, shartnomalar, maʼlumotnomalar, bayonnomalar hamda boshqa turli huquqiy hujjatlarni tayyorlash singari ishlar uchun kunlab, hattoki haftalab vaqt sharflashlari kerak boʻladi. Shu bilan birga maʼlumotlarni joylashtirishda xatolikka yoʻl qoʻyish ehtimollarini ham hisobga olganda, bu kabi ishlar birmuncha murakkab sanaladi. Shu sababdan ham bunday ishlarni bir necha sekundlar ichida bajarish qobiliyatiga ega boʻlgan, maxsus kiritilgan algoritmlar asosida ishlaydigan hamda xato qilishga moyilligi katta boʻlmagan, turli xil koʻrinishga ega va



turli tarmoqlarda ishlatilishi mumkin bo'lgan sun'iy intellekt dasturlaridan foydalanish hollari ko'payib bormoqda. Misol uchun, "Tuzuk AI" platformasi yordamida shartnomalar shartlarini oson va batafsil tahlil qilish mumkin. Huquqshunoslar allaqachon shartnomalar va vasiyatnomalarni shakllantirishda qoliplar va huquqiy shakllardan foydalanishadi hamda ularni shunchaki mijozlarning xohshiga moslashtirishadi [8]. Xitoylik tadqiqotchi WangYi bu haqida shunday deydi: "Professional huquqshunoslar joylardan turib xizmat ko'rsatuvchi, ma'lumotlarni tahlil qiluvchi vositalarga aylanib bormoqda, sun'iy intellekt esa ularga ishlarini tezroq, yaxshiroq va samaraliroq bajarishda yordam bermoqda." [9] Masalan, advokatlar huquqiy vaziyatlarga qanday yechim topish kerakligini bilish uchun soatlab izlanish olib borish o'rniga SI tomonidan taqdim etilgan tayyor manbalardan, yoki u ko'rsatgan usullar orqali muammoga tez yechim topishi mumkin. Anna Fine, Emily R. Berthelot, Shawn Marsh kabi yetuk huquqiy-texnologik tadqiqotchilar "Sud tizimiga sun'iy intellekt kirib kelar ekan, uning turli guruhlar tomonidan qanday qabul qilinishi hamda sud jarayoni va qonuniylik tushunchalariga qanday ta'sir etishini anglash muhim sanaladi" deya ta'kidlaydi [10]. Negaki bugungi kunda sud amaliyotida SIDan foydalanish g'oyasi bir qancha guruhlar tomonidan keng muhokama qilinmoqda. Qarashlarga ko'ra, SIga sudyaning bir qancha qarorlarini berib, uning tahlil natijalariga ko'ra ushbu sudyaning keyingi qarorini bashorat qilish huquqini berish, qaysidir ma'noda sudyaning o'rniga SIDan foydalanish yoki uni sudyaga yordamchi qilish mumkin. Masalan, Ukraina Adliya vazirligi jinoyatchi tomonidan qonun buzilishi ehtimollarini tahlil qilish imkoniyatini beruvchi, sun'iy intellekt elementlarini o'z ichiga oluvchi "Cassandra" dasturini ishga tushirmoqda [11]. Buning ijobiy tomoni shundaki, SI subyektiv qarash va fikrlarga ega emas, shu boisdan uning qabul qilgan qarorlari faqat qonun asosida bo'ladi hamda korrupsiya holatlariga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston respublikasi qonunchiligida ham sudlar faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish uchun zarur texnik infratuzilma yaratish, shuningdek, ushbu yo'nalishdagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bo'yicha choralar ko'rish belgilangan [12].

Huquqiy texnologiyalar va sun'iy intellektning xavf va muammolari. Huquqiy texnologiyalar ma'lumot xavfsizligi, sir tutilishi va algoritmik tarafdashlik bo'yicha axloqiy savollarni yuzga keltiradi. U axloqiy ko'rsatmalar va huquqiy mezonlarni ham hisobga olishni talab qiladi [13]. Huquqiy texnologiyalarning foydali tomonlari bilan bir qatorda ularning ba'zi bir xavfli jihatlari va muammolari bor. Shulardan biri ma'lumot xavfsizligi sanaladi. Huquqshunoslar huquqiy texnologiyalardan foydalanar



ekan, doimo mijozlarining ma'lumot xavfsizligini ta'minlashlari talab etiladi. Kiberjinoyatlar ko'payib borayotganligi kiberxavfsizlikni ta'minlash uchun qat'iy choralar ko'rishni talab qiladi. Bundan tashqari, turli huquqiy dasturlar, proqrammalar va platformalar tomonidan beriladigan ma'lumotlar yoki ko'rsatmalarining qanchalik ishonchli ekanligi huquqiy texnologiyalarning yana bir muammosidir. "Bunday tizimlar murakkab huquqiy ishlarni bajara oladi, lekin ularning qaror qabul qilishi tanqidiy kamchilik bilan kamsitiladi: ularning noto'g'ri va chalg'ituvchi ma'lumotlarni berishga moyilligi bor",- deya aytishadi Varun Magesh, Faiz Surani, Matthew Dahl, Mirac Suzgun, Christopher D Manning, Daniel E. Ho kabi bir guruh huquqshunoslar o'z maqolalarida [14]. Negaki bunday vositalar ularga kiritilgan algoritimga tayangan holda ma'lumot, manba va ko'rsatmalar taqdim etadi. Ularning axloqiy hamda huquqiy jihatdan ishonchli ekanligiga kafolat yo'q. Bu SI dan noto'g'ri foydalanishni keltirib chiqaradi. Misol uchun, Nyu-Yorklik advokatga ChatGPT tomonidan tayyorlangan, mavjud bo'lmagan hujjatni sudga topshirganligi uchun sanksiyaga qo'llangan va u bu hujjatning haqiqiy ekanligini tekshirmaganligini tan olgan hamda \$5,000 miqdorida jarimaga tortilgan [15].

Bugungi kunda huquq sohasi vakillari bajarayotgan ayrim ishlar SI tomonidan bajarilayotgani ma'lum. Bunday avtomatlashtirish (sun'iy intellektning ishlarni avtomatlashtirishi) yuqori darajali sifat va samaradorlikka olib keladi, shu bilan birga ishsizlik va an'anaviy mehnat qilish huquqlarining pasayishiga ham olib keladi. SI ulkan imkoniyatlarni taminlasada, uning integratsiyasi muammosiz emas. Axloqiy masalalardan tortib operativ xavflar mavjud, huquq sohasida SI ehtiyotkor qarashlarni talab etadigan murakkab masalalarni yuzaga keltiradi [16]. Ma'lumotlar xavfsizligi, algoritimik tarfakashlik kabi muammolar bilan bir qatorda SI ning yuz berishi mumkin bo'lgan eng katta xavfi bu kelajakda SI ning huquqshunoslik sohasida ishsizlikni keltirib chiqarishidir. Bir qancha guruhlar bu fikrga qo'shilishadi, chunki ular huquqshunoslar ko'rsatadigan huquqiy yordamni SI ham ko'rsatayotganining guvohi bo'lishmoqda. Yana shunday fikrlarni ham eshitishimiz mumkinki, SI huquq sohasidagi ishlarni olib qo'ymaydi, balki huquqshunslarning eng asosiy tayanchiga aylanadi. SI ning yana bir muammosiga to'xtalamiz. Vytautas Mizaras shunday bir fikr aytgan: "Ulkan rivojlanishlarga qaramasdan, sun'iy intellekt sudda qabul qilgan qaroriga mantiqli izoh va asosli sabab keltira olmaydi – hech bo'lmaganda hozircha" [17]. Sud sohasida sun'iy intellektdan foydalanishning ham kamchiligini ko'rish mumkin. Masalan, SI da simpatiya va antipatiya yo'qligi tufayli, u qabul qiladigan qaror qonuniy jihatdan to'g'ri bo'lsa ham, axloqiy jihatdan to'g'ri va adolatli bo'lmaydi.



Huquqiy texnologiyalar va sun'iy intellektni huquqiy jihatdan tartibga solish. Ko'pgina huquqiy texnologiyalar davlat xizmatlarini ko'rsatish uchun tashkil etilgani bois ular qonun bilan tartibga solinadi. "O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali to'g'risida"gi Nizom O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining maqsadini, vazifalarini va ish tartibini belgilaydi [18]. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (lex.uz) ham tegishli qonunchilik normalari bilan tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 31-dekabrda 340-sonli «O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasidan keng foydalanishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq 2010-yil 1-yanvardan boshlab barcha foydalanuvchilar Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasidan bepul foydalanishi mumkin [19].

Olena Yara, Anatoliy Brazheyev, Liudmyla Golovko, Viktoriya Bashkatovalarning aytishicha, dunyodagi ko'plab mamlakatlarda sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish kerakligi haqidagi savollar paydo bo'lmoqda [20]. Huquqiy tartibga solish nafaqat unga oid qonunchilik normalarini qo'llash, balki sun'iy intellektga mualliflik huquqini berish masalasini ham o'z ichiga oladi. Ko'plab davlatlarda, jumladan, O'zbekistonda ham SIni tartibga soluvchi qonunlar qabul qilinmoqda hamda shunday hujjatlarni qabul qilish rejalashtirilmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti yaqinda sog'liqni saqlash sohasida sun'iy intellekt tizimlarini tartibga solish bo'yicha e'tiborga olinishi lozim bo'lgan jihatlarni bayon etuvchi bayonotni e'lon qildi [21]. Ammo bu yerdagi eng muhim masalalardan biri sun'iy intellekt mualliflik huquqiga ega bo'lishi mumkinmi degan savoldir. Sahil Lal, Bhupinder Singh singari mutaxassislarining keltirishicha, 2021-yilda Janubiy Afrika DABUS nomli sun'iy intellektga ixtirochi sifatida patent berdi, bu sun'iy intellekt intellektual mulk himoyasiga ega bo'la oladimi yoki yo'qmi degan muhokamani qayta ko'tardi [22]. Garchi sun'iy intellekt kontentlarni originallik bilan yarata olsada, bu uning yaratuvchi subyekt sifatida kvalifikatsiya va mualliflik huquqi sohasida mualliflik huquqini olishini anglatmaydi. Huquqshunos olim Yuchen Lu shunday fikrni keltiradi: "Umuman olganda, mualliflik huquqi insonlarning yaratuvchanligini himoya qilishga deyarli barcha yurisdiksiyalarda mualliflik huquqi insonlargagina o'z mualliflik huquqiga egalik qilishga ruxsat beradi" [23]. Demak, aytish mumkinki, intellektual mulk deganda bu faqat insonlar mehnati natijasida yaratilgan va ma'lum talablarga javob beradigan barcha turdagi obyektlar sanalib, sun'iy intellekt yaratgan shunday sifatli mahsulotlar mualliflik huquqi obyekti hisoblanmaydi va sun'iy



intellektga mualliflik huquqi berilmaydi. Ammo sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish jarayoni davom etar ekan, yaqin kelajakda unga bunday huquqning berilish ehtimoli yo`q emas.

Tadqiqot natijalari muhokamasi.

Huquqiy texnologiyalar ham, sun'iy intellekt ham, allaqachon, huquq sohasining ajralmas qismiga aylanib ulgurdi deyish mumkin. Ushbu vositalardan samarali foydalanish natijasida ko`p vaqt, energiya va ehtiyotkorlik talab qiladigan huquqiy ishlar (xizmatlar)ni bajarish huquqshunoslarga qiyinchilik tug`dirmaydi.

Qaysidir ma'noda huquqiy texnologiyalar va sun'iy intellekt inson mehnatini ham kamaytiradi (masalan, hujjatlarni tahlil qilib, tayyor natijani beradi), biroq inson o`rnini bosa oladi deyish qiyin. Negaki, ushbu vositalar vaziyatni tahlil qilishi mumkin bo`lsada, ular muammoni adolatli hal qila olmaydi. Xususan, sud tizmida sudya o`rniga SIDan foydalanilsa, SI og`ir sharoitdan kelib chiqib huquqbuzarlik sodir etgan shaxsga axloqiy qarashlarsiz, qonunda belgilangan tartibda jazo tayinlaydi. Shuni ham hisobga olish kerakki, sun'iy intellekt revolutsiyasi yuz berishi natijasida u huquqshunoslar bajaradigan ishlarni to`liq hajmda bajara oladigan darajaga erishgach, insonlarning huquqshunoslarga bo`lgan ehtiyoji sezilarli suratda kamayishi mumkin. Kichik bir misol sifatida aytish mumkinki, 2025-yil sentabr oyida Albaniya davlati "Diella" nomli sun'iy intellektni vazir sifatida hukumat tarkibiga kiritdi [24].

Global miqyosda foydalanilayotgan huquqiy texnologiyalar va sun'iy intellekt yaqin kelajakda har bir inson hayotida muhim o`rin egallash arafasida. Insonlar hayotida o`zi bilgan va bilmagan holda ko`plab huquqiy munosabatlarga kirishadi. Albatta, bunday munosabatlarda insonlar o`rtasida turli kelishmovchiliklar, huquqlarning buzilishi, majburiyatlarning bajarilmasligi kabi nizoli vaziyatlar yuzga keladi. Iqtisodiy jihatdan va umuman olganda har qanday muammoli vaziyat uchun kishilar huquqshunoslarga murojaat qilishmaydi, buning o`rniga bepul maslahat beradigan yuqorida aytib o`tilgan vositalardan foydalanishni afzal ko`rishadi.

Insonlar hayotiga ommaviy ravishda kirib kelib ulgurgan huquqiy texnologiyalar va SI davlatlar faoliyatida keskin burilish yasadi, ya'ni jahondagi deyarli barcha mamlakatlar ushbu huquqiy vositalarni tartibga solishga qaratilgan samarali chora-tadbirlar ko`rish bilan shug`ullanmoqda. Xususan, O`zbekistonda ham bu borada huquqiy ishlar olib borilib, "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to`g`risida"gi Prezident Qarori qabul qilingan. Bundan tashqari, SIga mualliflik huquqini berish masalasi keng muhokama qilinib, bu



borada turli fikrlar bildirilmoqda. Uni huquq subyekti sifatida tan olish masalasi yana bir global masalalardan biri hisoblanadi.

Fikrimcha, insonlar huquqiy texnologiyalar va sun'iy intellektdan foydalanishda zarur ehtiyotkorlik choralarini ko'rishlari lozim. Shaxsiy ma'lumotlarning noqonuniy olinishi bilan bog'liq juda ko'plab huquqbuzarliklar kelib chiqayotganligi sir emas. Ushbu vositalar o'z xotiralarida saqlanishi g'araz niyatli insonlarga shaxsiy ma'lumotlarni olish va tarqatish imokini beradi. Shu boisdan bu borada ham keng tushuntirishlar hamda islohotlar o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosa.

Yuqorida keltirilganlardan xulosa qilib aytganda, huquqiy texnologiyalar va sun'iy intellekt texnologiyalar jadal rivojlanayotgan zamonda huquqshunoslar uchun eng yaxshi yordamchilarga aylanish bilan birga huquqiy xizmatlar bilan bog'liq ko'plab qulayliklar hamda imkoniyatlar yaratmoqda. Ular turli afzalliklarni ta'minlash bilan bir qatorda ularda bir necha kamchiliklar, ayniqsa, huquqshunoslardan ishini olib qo'yish xavfi va sud amaliyotida xato qilishga moyilligi mavjud ekanligi ham ma'lum. Bundan tashqari, huquqiy texnologiyalar va sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish butun dunoyda eng muhim masalalardan biri bo'lib, bu borada qonunchilik hujjatlarini qabul qilish jarayonlari amalga oshirilmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Grant Longstaff. What is legal tech? A beginner's guide for law students. The university of law. Published 11 February 2025.
2. Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi. Lex.uz. 2024-yil 14-oktabr.
3. Department of Judicial Administration Management , Henan Judicial Police Vocational College , ZhengZhou , 450000, China 邮箱 Article - AI in Legal Tech: Automating Document Review and Legal Research, 3-p, WangYi
4. John Villasenor. Generative Artificial Intelligence and the Practice of Law: Impact, Opportunities, and Risks, 25 Minn. J.L. Sci. & Tech. 25. LexisNexis. 2024.
5. Aayushi Selot. Article - Legal tech startups: Transforming law practice.
6. "Elektron hujjat aylanishi tog'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonini. 29.04.2004 yildagi 611-II-son 7-modda
7. Article – Four-step legal research process, AI in law practise. October 3, 2025.



8. Legal Technology and the Future of Women in Law. Kayal Munisami. 2025. (Westlaw Classic)
9. Department of Judicial Administration Management , Henan Judicial Police Vocational College , ZhengZhou , 450000, China 邮箱 : 18569903117@163.com Article - AI in Legal Tech: Automating Document Review and Legal Research, 3rd p, WangYi
10. Anna Fine, Emily R. Berthelot, Shawn Marsh. Article: Public perception of Judge`s use of AI tools in courtroom decision-making: an examination of legitimacy, fairness, trust, and procedural justice. P-1. Behavioral sciences. April 6, 2025.
11. Olena Yara, Anatoliy Brazheyev, Liudmilya Golovko, Viktoriia Bashkatova. Legal regulation of the use of artificial intelligence: problems and development prospects. 281-p. European journal of sustainable development. 2021.10.1
12. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni 140-son. 23.08.2025 lex.uz
13. Article – Impact of legal tech on the rule of law. Traact. October 9, 2023.
14. Varun Magesh, Faiz Surani, Matthew Dahl, Mirac Suzgun, Christopher D. Manning, Daniel E. Ho. Article: Hallucination-free? Assessing the reliability of leading AI legal research tools. P-1. arXiv. May 30. 2024.
15. Dr. Gleb Tsipursky. IN THIS ISSUE: JUSTICE MEETS ALGORITHMS: THE RISE OF GEN AI IN LAW FIRMS, 50 Montana Lawyer 11. The Montana Lawyer. June-July 2025. (LexisNexis)
16. International Journal of Law, Justice and Jurisprudence. 2024; 4(2): 238-247 p-240.
17. Vytautas Mizaras. Artificial intelligence and the right to fair trial, p-5. Jan 31, 2025
18. “O`zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari to`g`risida”gi nizom. Lex.uz.
19. O`zbekiston Respublikasi qonunchilik ma`lumotlari milliy bazasi foydalanuvchi qo`llanmasi. 4-b.
20. Olena Yara, Anatoliy Brazheyev, Liudmilya Golovko, Viktoriia Bashkatova.. Legal regulation of the use of artificial intelligence: problems and development prospects. 285-p. European journal of sustainable development. 2021.10.1



21. Gordon Scott Campbell, John P. Allen, Bernard Aron, Mr. Justice Rick Libman. Navigating the Future: A Comprehensive Analysis of Artificial Intelligence Regulatory Frameworks. RegQuest. April 2025. (Westlaw)
22. Sahil Lal, Bhupinder Singh. Artificial intelligence, legal personhood and intellectual property rights: navigating the new frontier of creation, p-2886. Journal of visual and performing arts. June 2024.
23. Yuchen Lu. AI generated content and its legal status under copyright law. P-221. Journal of Education, Humanities and Social sciences. 2024.
24. Reuters. Albania appoints AI bot as minister to tackle corruption. Sep 11, 2025.